
**URGANCH SHAHAR XALQ TA`LIMI
BO`LIMI**

**URGANCH SHAHAR 8-SON UMUMIY O`RTA
TA`LIM MAKTABINING 1-TOIFALI GEOGREFIYA
FANI O`QITUVCHISI QUTLUMURATOV
SHUHRATNING ISH TAJRIBASIDAN**

**MAVZU: “Geografiya darslarida badiiy adabiyot
namunalaridan foydalanib, o`quvchilarni faollashtirish
uslublari”**

URGANCH – 2006 yil

Tuzuvchi: 8-son maktab o`qituvchisi Qutlmuratov Shuxrat

Taqrizchilar: VXTPXQTMOI geografiya o`qituvchisi katta
o`qituvchisi Madaminov B

MAVZU: “Geografiya darslarida badiiy adabiyot namunalaridan foydalanib, o`quvchilarni faollashtirish uslublari”

Urganch shahar 8-son maktabning geografiya fani o`qituvchisi geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan tez-tez foydalanadi.

Uning fikriga o`quvchilar tabiatni sevish ruhida tarbiyalash, uning go`zalligini payqashda she`rlar, Qutlmuratov Shuxrat topishmoqlar va maqollar muhim ro`l o`ynaydi. Shu sababli darslarda she`riy parchalardan namunalar keltiradi. Masalan, “Ikki daryo yuvar kokilin” Xamid Olimjon misrasida shoir qaysi daryolarni ko`zda tutgan degan savolni beradi.

Javob: Amudaryo va Sirdaryo

“Yaproqlar sarg`ayib qolibdi.

Tegib ketsang to`kilar duv-duv”.

Tabiatni qaysi davri tasvirlangan? Yaproqlar qachon sarg`ayadi? Savollar orqali javob - O`quvchilarda “Kuz fasli” tabiatni ko`rish ijodiy payqash xususiyatlari shakllanadi. Qutlmuratov Shuxrat o`quvchilari ham ustozdan namuna olib ijodiy ishlarda she`rlar va maqollardan foydalana boshladilar.

Maktab o`quvchilari o`rtasida o`tgan “Bir tomchi suvda quyosh aksi” inshosida Qutlmuratov Shuxrat o`quvchilari yozgan insholarning mazmuni va she`rlarga boyligi bilan ajralib turdi.

Biz quyidagi Qutlmuratov Shuxrat darslaridan namunalar keltiramiz va geografiya o`qituvchilariga uslubiy yordam bo`lar degan umiddamiz.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida tub o`zgarishlar yuz bermoqda shuningdek, maorif sohasida har bir fanning vazifasi bilim berish bilan birga yoshlarda zamonaviy etiqod va dunyo-qarashni shakllantirish, dunyoni chuqr anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan mustaqil fikrli ma`naviy barkamol vatanparvar insonlarni tarbiyalashdan iborat.

“Ta`lim to`g`risida”gi qonunda umumiyl o`rta ta`lim maktabi o`quvchilariga bilimlarni zarur hajmini berish, mustaqil fikrlash tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko`nikmalarini rivojlantirish dastlabki kasbga yo`naltirish ta`limni navbatdagi bosqichini tanlashga yordam berish ta`kidlab o`tilgan.

Biz tajribasini o`rganayotgan Qutlmuratov Shuxrat geografiya darsalrida o`quvchilarni qiziqtirish, geografik madaniyatni shakllantirish maqsadida badiiy adabiyot namunalaridan foydalanib dars o`tishga harakat qiladi. Bunda xalq maqollaridan topishmoqlardan she`r va badiiy adabiyotlardan foydalanadi.

“Mustaqillik darslari” 2 - sentyabrda 1 – soatda o`tiladi.

O`qituvchi: Mustaqilligimiz buyuk ne`mat. Biz bunga osonlik bilan erishmadik. Buyuk ahdodlarimiz mustaqillik uchun kurashchan, Vatan, xalq baxt – saodati uchun jonlarini qurban qilishgan.

Shu o`rinda shoir Muhammad Yusufning „Vatanim“ she`ridan foydalanadi.

Men dunyoni nima qildim

O`zing yorug` jahonom,

Haqqon o`zing, sulton o`zing,

Sen taxti sulaymonim.

Yolg`izim, yagonam deymu.

Topingan koshonam deymu

O`zing meni ulug`lardan,

Ulug`imsan Vatanim.

Oxirgi satrlarni o`qiganda butun sinfdagi o`quvhilar qo`shiladi.

Buni bilan sinfga Vatanparvarlik, vatanga sodiqlik, milliy g`urur kabi sifatlar kirib keladi.

Dars davomida o`quvchilar Ona Vatan, Mustaqillik haqida gapirishadi, she`rlar, maqollar aytildi. Ular dars davomida rag`batlantirib boriladi.

9-sinf “Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan “Hindiston” mavzusi o`tiladi. Bu mavzuda o`qituvchi Hindistoning sanoati, xo`jaligi, transporti haqida ilmiy, geografik axborotlar beradi. Shu o`rinda Boburiylar sulolasiga davriga to`xtalib darsni tarix bilan bog`laydi.

O`qituvchi: Boburiylar Hindistonda qancha vaqt hukmronlik qilgan degan savolni tashlaydi.

O`quvchilar: 3 asr davomida Bobur Hindistonda birlashgan buyuk davlat tuzgan. Shu o`rinda M.Yusuf she`ridan foydalandi.

Kim Qashqarni, qildi makon

Kim Enasoy tamonda.

Jaloladdin Qurdistonda

Boburing Hindistonda
Bu qanday yuz qarolig` deb
Yotarlar zimistonda
Taqab ketgan to`qson olti,
Urug`imsan Vatanim.

Topshiriq. She`rda aytilgan xududlar kartadan ko`rsatiladi.

Bu satrlar bilan o`qituvchi Vatanparvarlik, Vatanni ardoqlash tuyg`ularini tarkib toptiradi. Hozirgi kunda turli oqimlar vahobiychilik aqidaparastlik diniy ekstermistik g`oyalariga bo`ysunib Vatandan ketib o`zga yurtlarda xor-zor bo`layotgan yoshlаримизни аytib o`tadi.

Vatandoshimiz Pahlavon Mahmudni ushbu hikmatli so`zlaridan ham darsda foydalanish mumkin.

“Men uchun Rum atlasidan, Xorazmning bir parcha namati ming bora afzal”,

Mahtumqulining “O`zga yurting bog`l bilan bog`chasi, o`z yurtingni tikanicha bilinmas”. – degan hikmatli so`zları bilan dars mustahkamlanadi. Bu bilan dars davomida o`quvchilar faolligi oshadi.

6- sinf “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi”. Shimoliy Amerikani kashf etilishi mavzusida.

O`qituvchi mavzuni boshlashdan oldin butun sinfga savol tashlaydi:

- Amerika qit`asini birinchi bo`lib kim kashf qilgan.
- O`quvchilar: Xristofor Kolumb.
- O`qituvchi shunda ushbu satrlarni o`qiydi,

Abdulla Oripovning „O`zbekiston“ she`ri.

Amerika sehrli diyor,
 Uxlар edi Kolumb ham hali.
 Dengiz ortin yoritdi ilk bor
 Beruniyning aql mash`ali.
 Kolumbdа bor alamim mening,
 O`zbekiston Vatanim mening,
 Ushbu satrlardan keyin, butun sinfga o`qituvchi birinchi
 marta bobokalonimiz Beruniy Amerika haqida ilk ma`lumotlar
 bergenini aytadi. Shu bilan birga o`quvchi ongiga bu misralar
 muhrlanib qoladi. Geografik bilimlar, yanada mustahkamlanadi.

7 – sınıf O`zbekistonning tabiatiga ta`rif berganda ham badiiy
 adabiyot namunalaridan foydalanib, o`quvchilarni geografik
 bilimlarini mustahkamlab borish mumkin.

O`qituvchi O`zbekiston tabiatiga xilma-xilligiga, takrorlanmas
 go`zalligiga ta`rif berib ushbu satrlarni o`qiydi. Hamid Olimjonning
 “O`zbekiston” she`ri.

Chiroylidir go`yo yosh kelin,
 Ikki daryo yuvar kokilin
 Qorli tog`lar turara boshida

Gul vodiylar yashnar qoshida

Chor atrofga yoganda gilam

Aslo to`qdir, bundayin ko`klam.

- O`quvchilardan qaysi ikki daryo bu deb so`raladi.

- Tog`lar vodiylar ham izoh so`raladi.

Buni bilan o`quvchi ko`z oldida O`zbekistonning go`zal manzarasi namoyon bo`ladi. O`quvchilar bu satrlar bilan go`zal tabiatga oshno bo`ladi, geografik bilimlar mustahkamlanadi. Dars oxirida o`quvchilar fikrlari muhokama qilinadi va xulosalanadi.

5 - sinfda “tabiiy geografiya” fanida Yer yuzining isishiga ta`rif berganda ham o`qituvchi badiiy adabiyotga murojaat etadi.

Shoir Uyg`urning “Tong” she`ridan.

Men erta turib tongni ko`rdim,

Oq shohi ro`moli boshida.

Ufq kiyintirib go`zal falak

Sochini taraydi qoshida.

- Bu satrlarni o`qib o`qituvchi “geografik termin”larga to`xtalib savol beradi.
- O`qituvchi – Ufq nima.
- O`quvchilar Quyoshning chiqishi yoki Quyoshning ilik zarralari.
- O`qituvchi “Falak” nima.
- O`quvchilar Osmon.

O`quvchilar savollarga javob berishda ko`p o`ylanadi. Bir necha javobga to`xtaladi. Buni bilan olgan bilimlarini dars davomida mustahkamlaydi.

Geografiya darslarida faqat she`riy misralardan emas xalq maqollari, topishmoqlardan ham foydalanish mumkin.

5 – sinfda “Shamol” mavzusini o`tganda dastlab o`qituvchi “Qo`lsiz oyoqsiz, eshik ochar” topishmog`ini aytadi.

O`quvchilar “Shamol” deb javob beradilar.

O`qituvchi qanday qilib, eshik ochadi deb savolni qayta takrorlaydi. Bu savol o`quvchilarni izlanishga va javob axtarishga undaydi.

Javoblar, har xil bo`lishi mumkin. Ammo, havo massasini harakati eshikni ochilishiga sabab bo`ladi, deb havo massasinin harakati sabablari tushuntiriladi. Bunga 2-3 daqiqa ketadi. Buni bilan dars samaradorligi oshadi.

Geografiya darslarida, tabiatni asrash va uni sevish – ekoliya masalalariga o`qituvchi keng to`xtaladi. Bu mavzuda albatta Orol muammosini o`qituvchi chetlab o`tmaydi. Orolni she`r bilan tiriltirib bilmaydi. Ammo, she`r orqali o`quvchilar qalbiga ezgu, niyatlar joylash mumkin.

“Dunyonи go`zallik qutqaradi deyishadi”.

Muhamad Yusufning “Orol” she`ridan darsda foydalanadi, O`qituvchi

Orol dengiz, Orol bechora dengiz
Zilol dengiz uvol – avvora dengiz.
Qirg`og`idan – qirg`og`imga qum ko`chdi.
Momo yurtga sigmay, tagin kim ko`chdi?

- Hozirgi kundagi eng global masala ichimlik suvini asrash, har tomchisini asrash, iflos qilmaslik har bir o`zbek xonadonining kundalik muammosidir.

Shuningdek, suv haqida maqollar keltiradi va darsda olingan bilimlarni mustahkamlaydi.

1. Suv – olamni yashnatadi
2. Suvdek serob bo`ling.
3. Ekinni qoni va joni suv

Geografiya darslarida ekologiya tarbiya berish imkoniyatlari juda katta. Shu sababli darslarda qiziqarli ma`lumotlarni geografiya daftariga yozib qo`yishni maslahat qiladi.

Masalan: ichishga yaroqli suv dunyoda 2% ni tashkil qiladi. Ichish uchun sho`rligi 1% gacha bo`lgan suv eng yaxshi hisoblanadi.

Chorva mollarini sug`orish uchun sho`rligi 6-7% bo`lgan suv ham yaroqli hisoblanadi. 1 kg qog`oz ishlab chiqarish uchun 100 metr³ 1 kg junni to`qimaga aylantirish uchun 400 metr³, 1 banka sabzavot tayyorlash uchun 20 metr³ suv sarflanadi.

Suvdan tejab – tergap foydalanish haqida kelajak avlodga hozirdanoq tushuntirmog`imiz zarur.

Ona tabiatni betakror go`zalliklarini qadrlashga asrab avaylashga, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga chorlaydi.

Suvni, havoni ifloslamaslik salomatlik garovi ekani geografiya darslarida o`quvchilar ongiga singdiriladi.

Qutlmuratov Shuxrat o`quvchilarni bir qismida tabiatni sevish hissi kuchli ekanini, dars jarayonida taxlil etib yaqqol sezilishiga e`tibor beradi. Ba`zi o`quvchilarda tabiatni she`rlar orqali xis qilishga intilish borligi uchun ham darslarda she`rlar va ijodiy lavhalardan foydalanadi. Shuning uchun ham uning darslari maroqli va qiziqarli o`tadi. O`quvchilar o`zlari o`qigan badiiy adabiyot namunalaridan tabiat haqida she`rlar va lavhalarni uchratsalar sinfda o`qish istagini bildiradilar. Bunday paytlarda Qutlmuratov Shuxrat albatta she`r yoki lavha o`qishga ruxsat beradi. Chunki o`quvchi topib kelgan she`r lavha namunasini boshqalar bilan baxam ko`radi. O`quvchilarda izlanish jarayoni shakllanadi. O`qituvchining ham maqsadi xuddi shu faoliyatni hosil qilishdir.

